МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IRODAVIY SOHANI RIVOJLANTIRISH.

*Osiyo xalqaro universiteti*
*Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*
***Majidova Feruza Maxmud qizi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iroda, irodaviy sifatlar, maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy sohani rivojlantirishda o'yin faoliyati, mehnat faoliyati va nutq egallashning ahamiyati, iroda to'g'risida Arastuning fikri, irodaviy harakat bosqichlari, irodaning kuchi , motivlar kurashi, maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy sohani rivojlantirish, bolalar irodasini rivojlantirib borish ularni maktabga tayyorlash shartlaridan biri ekanligi haqida qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Iroda, maqsad, irodasizlik, motivatsiya, o'yin faoliyati, mehnat faoliyati, diqqat.

**Аннотация:** В данной статье воля, волевые качества, значение игровой деятельности, трудовой деятельности и овладения речью в развитии волевого поля у детей дошкольного возраста, взгляд Аристотеля на волю, этапы волевого действия, силу воли, борьбу. мотивов, воли у дошкольников Кратко было сказано, что развитие сферы, развитие воли детей является одним из условий подготовки их к школе.

**Ключевые слова:** Воля, цель, безволие, мотивация, игровая деятельность, трудовая деятельность, внимание.

**Annotation:** In this article will, will qualities, the importance of game activity, work activity and speech acquisition in the development of the will field in preschool children, Aristotle's opinion about the will, stages of will action, the power of will, the struggle of motives, will in preschool children It was briefly stated that the development of the field, the development of children's will is one of the conditions for preparing them for school.

**Key words**: Will, goal, lack of will, motivation, game activity, work activity, attention.

Iroda-bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi.

Irodaviy harakatlar bosqichlari:

1. Maqsad va unga erishishiga intilish;
2. Maqsadga erishish imkoniyatlarini topish;
3. Motivlarni paydo bo'lishi va imkoniyatlarni mustahkamlash;
4. Motivlar kurashi va tanlash;
5. Biror fikrni qabul qilish;
6. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish;

Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi.

Maqsad-kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. Maqsadni va unga yetishish yo'llarining ma'qulligi yoki noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa ish-harakat motivlari deb ataladi. Kishining ichki to'siqlarni yenga olish, o'zini boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila olish qobiliyati odatda ichki iroda deb yuritiladi. Insonning to'siqlarni, tashqi qiyinchiliklarini yenga olish qobiliyati tashqi iroda deb ataladi.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko'rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz xohishlarni farq qilamiz.

Irodaning kuchsizligi odatda irodasizlik deb ataladi. Arastu o'z davrida irodani jon haqidagi fanning muhim tushunchasi deb e'tirof etgan. Uning fikricha, iroda inson xulq-atvorini o'zgartirishini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi.

Bolaning jismoniy tarbiyasi bolaning irodasini rivojlantirishga birdek muhim ta'sir ko'rsatadi. Kattaroq yoshda irodaviy fazilatlarning shakllanishi to'xtamaydi. Ular mehnat faoliyatida eng yuqori rivojlanishga erishadilar.

Irodaviy tartibga solishning rivojlanishi bir necha yo'nalishda sodir bo'ladi:

1. Ixtiyorsiz psixik jarayonlarni ixtiyoriy jarayonlarga aylantirish.

2. Xulq-atvor ustidan nazoratni qo‘lga kiritish.

3. Irodaviy sifatlarni rivojlantirish.

Irodaviy harakatlar ma’lum maqsad asosida amalga oshiriladigan, to’la anglangan harakat bo’lgani uchun bunday murakkab harakatlar hali chaqaloq bolalarda bo’lmaydi. Irodaviy jarayonlar bilan bog’liq bo’lgan asosiy ixtiyoriy harakatlar bog’cha yoshidan boshlab yuzaga kela boshlaydi.Bog’cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarining rivojlanishida o’yin juda katta rol o’ynaydi. Bu yoshdagi bolalarning o‘yinlarini uchga bo‘lish mumkin:

1) predmetli o‘yinlar(15-20 minut o‘ynaladi);

2) syujetli-rolli o‘yinlar (30-60 minut o‘ynaladi);

3) qoidali o‘yinlar (1soatdan-2kungacha davom etishi mumkin).

O’yin bolalar irodasini o’stiruvchi va mustahkamlovchi omillardan biridir. Bolalar o’zlarining turli-tuman o’yinlarida o’z oldilariga ma’lum maqsadlarni qo’yadilar, ba’zan uchrab qolgan to’siqlarni yengib, ko’zlagan maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Bog’cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarini o’stirish va mustahkamlashda rollarga bo’linib o’ynaydigan hamda qoidali o’yinlarning ahamiyati g’oyat kattadir. O’yin qoidalariga rioya qilishda o’z iroda kuchini ishga solishga to’g’ri keladi, chunki bola o’yin paytida o’zining harakatlarini o’ynovchilarning maqsadlari bilan moslashtirishi kerak. Kichik guruh bolalari esa buning uddasidan chiqa olmaydilar, ya’ni o’yin qoidalariga to’la rioya qila olmaydilar. Shuning uchun ular qoidali o’yinlarga qatnashganlarida juda sodda rollarni bajaradilar. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy harakatlar rivojlanishi bilan birga irodaviy jarayonlar ham ko’rina boshlaydi (maqsad qo’yish, yo’l-yo’riq hamda vositalarni belgilash, qarorga kelish va qarorni ijro etish).

Irodaviy jarayonlar  bilan bog’liq bo’lgan asosiy ixtiyoriy harakatlar bog’cha yoshidan yuzaga kela boshlaydi. Lekin kichik yoshdagi bolalarda bunday irodaviy jarayonlar hali aniq emas. O’tkazilgan tekshirishlarning ko’rsatishicha, 3 yoshli bolalarning harakatlari qo’yilgan qat’iy bir maqsaddan kelib chiqmaydi. Aksincha, biror maqsad harakat davomida belgilanadi. Ularning maqsadlari ham juda tez o’zgarib turadi. Shuning uchun ular ko’pincha boshlagan ishlarini oxiriga yetkazmay, bir ishdan ikkinchi bir

boshqa ishga o'tib ketaveradilar. Buning asosiy sababi shuki, kichik yoshdagi bog'cha bolalarining ixtiyorsiz harakatlarida hissiyot juda katta o'rin egallaydi. Bu yoshdagi bolalar o'zlarida tug'ilgan bir talay hissiyotlar ta'siri bilan bir maqsadni belgilaydilar. Agar bolalarning oldilariga qo'yilgan maqsad ularga qattiq ta'sir qilib, hissiyotlarini uyg'otsa, bunday paytda bolalar o'zlariga xos ravishda iroda kuchi va qat'iylik ko'rsatishlari mumkin.Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda ularni mehnat mashg'ulotlariga jalb qilishning ham ahamiyati kattadir. Bolalardagi irodaviy harakatlarni rivojlantirish maqadida ularni o'z-o'ziga xizmat qilish, supurish-sidirish, guruhda navbatchilik qilish, poliz ekinlarini, gullarni parvarish qilish va tabiat burchaklarida navbatchilik qilish kabi mehnat turlariga jalb qilish zarur. Bunda faqat mehnat topshiriqlari berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning bu topshiriqlarni qanday bajarayotganliklarini ham tizimli ravishda tekshirib, nazorat qilib turish lozim. Ana shunday qilgandagina bolalarda javobgarlik hissi yuzaga keladi. Bolalarga biron mehnat topshirig'i berilsa, ular ayni chog'dagi o'zlarining mayl-xohishlarini yengib, mehnat topshiriqlarini o'z vaqtida bajarishga intiladilar. Ular ko'pincha hatto o'ynab turgan o'yinlarini ham to'xtatib, topshiriqni bajarishga kirishadilar. Bu esa ularda irodaviy harakatlarning rivojlanishiga yordam beradi, qarorga kelishlarida motivlar kurashi ham ko'rinadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ijtimoiy motivlarning ta'siri bilan bir qator iroda sifatlari, ya'ni qat'iylik, mustaqillik, tashabbuskorlik, dadillik kabi sifatlar tarkib topa boshlaydi. Masalan, kichik yoshdagi bog'cha bolasiga ikkita o'yinchoqni ko'rsatib, shulardan birini tanlab olish taklif etilsa, u darrov tanlab ololmaydi. U qo'lini goh u o'yinchoq, goh bu o'yinchoqqa cho'zadi. Bunday holda juda sodda bo'lsa ham motivlar kurashi yuzaga keladi, bola qaysi bir o'yinchoqni olish haqida qarorga kelolmaydi. Maqsadlarga erishish yo'llarini va vositalarini tanlash sharoiti ba'zan ichki kurash xarakteriga ega bo'ladi, bu kurashda turli kuch va jozibaga ega bo'lgan bir necha motiv maydonga chiqadi. Shuning uchun ham bu jarayon motivlar kurashi deb yuritiladi. Shunday qilib, bog'cha yoshida bolaning irodaviy harakatlari har tomonlama rivojlanib, mustahkamlanib boradi. Bolalar irodasini rivojlantirib borish ularni maktabga tayyorlash shartlaridan biridir.  Maktabgacha yoshdagi boalarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishda diqqat ham katta ahamiyat kasb

etadi, chunki bu yoshdagi bolalarda ixtiryorsiz diqqat ustunlik qiladi. Ularda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirish orqali irodaviy sohani rivojlantirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar irodaviy sifatlarini rivojlantirishda nutqni egallash ham katta ahamiyatga egadir. Bola nutqni egallagach u kattalar bilan nutqi orqali munosabatga kirishadi. Tarbiyachilar va ota-onalar bolalarga og'zaki tarzda turli vazifalarni topshiradilar. Bolalar esa bajarib turgan ishlarini qo'yib, kattalar topshirgan topshiriqlarni bajarishga kirishadilar. Bu esa ularda ixtiyoriy harakatlar va irodaviy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Nutq asosan o'rta va katta guruh yoshidagi bolalar irodasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yoshda bolalar topshiriqlarni ixtiyoriy ravishda bajarishda so'z orqali tushuntirib berilgan usullarga rioya qilishga intiladilar. Agar bolalar o'z xatti-harakatlarini o'zlari idora eta olmasalar, maktabning qat'iy tartib-qoidalariga rioya qila olmaydilar. Natijada ularga tizimli bilim berish mumkin bo'lmay qoladi. Shuning uchun tarbiyachilar va ota-onalar bolalariga har xil topshiriqlar berish orqali ularning irodalarini tarbiyalab borishlari zarur.

Xulosa qilib shuni aytamanki, maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishda o'yin faoliyati, mehnat faoliyati, nutqni egallash katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar irodasini rivojlantirib borish ularni maktabga tayyorlash shartlaridan biridir. Maktabdagi o'qish jarayoni irodaviy harakatlar va irodaviy sifatlarning rivojlangan bo'lishini talab qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kozimova, N. A. (2023). Bugungi ta'lim tizimida zamonaviy o 'quvchi shaxsining ijtimoiy va psixologik jihatlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 44-46.
2. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.
3. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ:

Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры "Теория начального образования", Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 305-307.

4. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. *Miasto Przyszłości*, *35*, 388-390.

5. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, *1*(3), 102-107.

6. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 383-388.

7. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 138-143.

8. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.

9. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). научно-методические основы организации самостоятельной работы по высшей математике. *Проблемы науки*, (4 (63)), 84-87.

10. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 121-123).

11. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 102-106).

12. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. *Universum: технические науки*, (4-1 (109)), 41-43.

13. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).

14. Ergashovna, S. G., & Baxodirovna, S. N. (2019). Modern teaching technologies in teaching mathematics in elementary grades. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, *7*.

15. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMS OF ORGANIZATION OF MATHEMATICS TEACHING IN ELEMENTARY GRADES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(11), 5-8.

16. Bahodirovna, S. N. (2024). HEAD OF CHILDREN'S INSTITUTION IN ORGANIZING THE WORK OF FORMING MATHEMATICAL IMAGINATIONS AND BIG TEACHER'S PLACE. EDUCATORS KNOWLEDGE DEGREE AND FORMS OF DEVELOPMENT OF SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(3), 119-124.

17. Bahodirovna, S. N. (2023). ELEMENTARY MATHEMATICS AND COHERENCE BETWEEN STAGES OF MATHEMATICS EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *3*(5), 393-397.

18. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 292-292.

19. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. *НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*, 10-12.

20. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. *Вестник науки и образования*, (5-3 (118)), 40-42.

21. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

22. Hikmatovna, M. N. (2023). Goals and Tasks of Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 360-362.

23. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN*

*UZBEKISTAN*, *1*(5), 339-344.

24. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(9), 386-388.

25. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 440-446.

26. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 447–452.

27. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *2*(1), 31-43.

28. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2024). INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON PERSONAL SOCIALIZATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 164–170.

29. Hikmatovna, M. N. (2024). CONTENT OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, *2*(2), 88-94.

30. Hikmatovna, M. N. (2024). Teaching of specialized subjects in primary education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 453-460.

31. Hikmatovna, M. N. (2024). Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 445-452.

32. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе . *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, *4*(2), 436–444.

33. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 184-191.

34. Akbarovna, I. S. (2023). THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE TEACHING OF CONCEPTS OF THE

UNCONSCIOUS TO STUDENTS. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 107-114.

35. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.

36. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. Modern Science and Research, 2(9), 424-428.

37. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. Modern Science and Research, 2(10), 855-857.

38. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.

39. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 209-209.

40. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching the Science of" Education" in Primary Grades. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 369-372.

41. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.

42. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. Ann. For. Res, 65(1), 2719-2722.

43. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. Язык и культура (Новосибирск), (23), 127-130.

44. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.

45. Hojiyeva Nasiba Bahodirovna. (2024). Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish muammosining yoritilish mazmuni. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1),200–206.

46. Hojiyeva Nasiba Bahodirovna. (2024). THE SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL TRAINING IN PRIMARY CLASSES. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 439–447.

47. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.

48. Ne'matovna, T. Z. (2024). PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLARIDAN FOYDALANISH. PEDAGOG, 7(4), 451-457.

49. NE'MATOVNA, T. Z. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 207-212.

50. Ne'matovna, T. Z. (2024). DEVELOPMENT OF STUDENTS'LINGUISTIC COMPETENCIES IN" MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY" LESSONS OF THE 3rd GRADE. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 114-118.

51. Ne'matovna, T. Z. (2024). FORMATION OF MOTHER LANGUAGE COMPETENCES IN PRIMARY CLASS STUDENTS. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 453-461.

52. Tursunova, Z. (2023). USING INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES. *Modern Science and Research*, *2*(10), 777-779.

53. Ne'matovna, T. Z. (2024). IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY OF FORMATION OF STUDENTS'LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY-GRADE MOTHER TONGUE CLASSES. *International journal of artificial intelligence*, *4*(03), 459-461.

54. Radzabova N. K. FACTORS INCLUDING RESEARCH ACTIVITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //НАУКА, ТЕХНОЛОГИИ, ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2022. – С. 119-121.

55. Rajabova, Nodirabegim K. "Pedagogical Conditions for Improving the Research Activities of Future Primary School Teachers.".

56. Komilovna R. N. METHODS AND TOOLS OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF THE CONCEPT OF FIGURE FACE IN STUDENTS. – 2021.

57. Radzabova K. N. Pedagogical Conditions for Improving Research Activity in Future Primary School Teachers. – 2021.

58. Ражабова Н. К. БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 349-352.

59. Radzabova N. K. FACTORS INCLUDING RESEARCH ACTIVITIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //НАУКА, ТЕХНОЛОГИИ, ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2022. – С. 119-121.

60. Davranova G. Collaboration between kindergarten and family //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.